

O'ZLASHMA SO'ZLARNI O'QITISHGA OID MULOHAZALAR

Boboxonova Nilufar

*Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti,
O'zbek tili va adabiyoti yo'naliishi 311-guruh talabasi
nilufarboboxonova2@gmail.com*

Tel: +998971220019

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek tiliga boshqa tillardan kirib kelgan o'zlashma so'zlarning kelib chiqish sabablari, ularning leksik-sintaktik xususiyatlari hamda zamonaviy o'quv jarayonida o'qitilishiga metodik yondashuv yoritiladi. O'zlashma so'zlarning til boyligini kengaytirishdagi o'rni, ularning tarixiy va zamonaviy shakllari, o'quvchilarning lingvistik tafakkurini shakllantirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Maktab darsliklari asosida amaliy mashqlar, metodik tavsiyalar va interfaol usullar asosida yondashuvlar taklif etiladi. Tadqiqot o'zlashma so'zlar mavzusini o'qitishda samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: o'zlashma so'zlar, o'zbek tili, leksik boylik, tilshunoslik, metodik yondashuv, maktab darsliklari, neologizm, til o'zgarishi, lingvistik tahlil, o'quv jarayoni.

Abstract: This article discusses the reasons for the origin of loanwords that have entered the Uzbek language from other languages, their lexical and syntactic characteristics, and a methodological approach to their teaching in the modern educational process. The role of loanwords in expanding the wealth of the language, their historical and modern forms, and their importance in forming students' linguistic thinking are analyzed. Practical exercises, methodological recommendations, and approaches based on interactive methods are proposed based on school textbooks. The study serves to increase the effectiveness of teaching the topic of loanwords.

Key words: loanwords, Uzbek language, lexical richness, linguistics, methodological approach, school textbooks, neologism, language change, linguistic analysis, learning process.

Til — bu millat tafakkuri va madaniyatining asosiy ko‘zgusi sanaladi. Har bir millat o‘z tilini asrab-avaylashi, boyitishi va zamon talablari asosida rivojlantirib borishi bilan o‘z milliy ruhini, mustaqilligini saqlab qoladi. O‘zbek tili ham rivojlanish va taraqqiyot jarayonida boshqa tillar bilan aloqada bo‘lgan, turli bosqichlarda o‘ziga xos o‘zlashma so‘zlar bilan boyigan. Aynan shu so‘zlar tilimizning leksik zaxirasini kengaytirib, uni zamonaviylashtirishga xizmat qilmoqda.

O‘zlashma so‘zlar — bu boshqa tillardan o‘zlashtirib olingan va o‘zbek tilida barqaror ishlatilayotgan leksemalardir. Ular tarixiy jarayonlar, madaniy aloqalar, siyosiy holatlar, ilmiy va texnologik taraqqiyot natijasida tildan tilga ko‘chgan va o‘zlashgan. O‘zbek tilida eng ko‘p o‘zlashmalar arab, fors-tojik, rus va ingliz tillaridan kirib kelgan. Masalan, “kitob”, “san’at”, “maktab” arab tilidan, “barg”, “go‘sht”, “anor” fors-tojik tilidan, “tramvay”, “vokzal”, “kolxoz” rus tilidan, “kompyuter”, “printer”, “marketing” ingliz tilidan o‘zlashgan.

Bu so‘zlar fonetik, morfologik va semantik jihatdan o‘zbek tiliga moslashib, ba’zida so‘z yasovchi qo‘shimchalar orqali yangi so‘zlar yaratishda ham faol ishtirot etadi. Masalan, “kompyuter” so‘zidan “kompyuterchi”, “trenajyor”dan “trenajyorchi” kabi so‘zlar yasaladi. Aynan shu jarayon tilning rivojlanishida o‘zlashmalar faqat tashqi hodisa emas, balki ichki imkoniyatlarni kengaytiruvchi vosita ekanini ko‘rsatadi.

So‘zlarning o‘zlashuvi bir necha bosqichlarda kechishi mumkin. Masalan, ingliz tilidagi “hockey” so‘zi rus tiliga “xokkey” tarzida kirib, undan keyin o‘zbek tiliga ham shu shaklda o‘zlashadi. Bu fonetik moslashuv natijasidir. Yoki “palov” so‘zi rus tilidagi “plov” shaklida ingliz tiliga o‘tgan bo‘lib, u ham oraliq til orqali o‘zgarishka uchragan.

O‘zlashma so‘zlar tilimizning zamonaviyligini belgilovchi muhim vositalardan biri bo‘lsa-da, ularni o‘rinli ishlatish ham muhim. Chunki o‘zbek tilida mavjud bo‘lgan so‘zlar hisobiga boshqa tildan kelgan sinonimni keraksiz ishlatish, ona tilimiz imkoniyatlarini e’tibordan chetda qoldirishga olib keladi. Shuning uchun o‘qituvchi o‘quvchilarga o‘zlashma so‘zlarni tahliliy va tanqidiy yondashuv asosida tushuntirishi lozim.

Bugungi o‘quv jarayonida o‘zlashma so‘zлarning o‘рганилиши nafaqat til boyligini oshiradi, balki o‘quvchilarning tahliliy fikrlashini, ifodali so‘zlash malakasini, dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladi. Maktab o‘quv dasturlarida o‘zlashma so‘zlar mavzusi 5–9-sinflarda o‘рганилади. Darsliklarda ularning fonetik va semantik xususiyatlari yoritiladi, tarixiy-etimologik ma’lumotlar beriladi. Ammo bu mavzuni yanada chuqurroq o‘zlashtirish, amaliyotga tadbiq qilish uchun metodik yondashuv muhim. Nazariy bilimlar o‘quvchining esida mustahkam saqlanishi uchun ularni amaliy topshiriqlar bilan boyitish, turli faol o‘qitish usullaridan foydalanish zarur. Shu sababli, o‘zlashma so‘zlarni o‘рганиш bo‘yicha quyidagi metodik tavsiyalar dars samaradorligini oshirishga xizmat qiladi:

Maktab o‘quv dasturlarida o‘zlashma so‘zlar mavzusi 5–9-sinflarda o‘рганилади. Darsliklarda ularning fonetik va semantik xususiyatlari yoritiladi, tarixiy-etimologik ma’lumotlar beriladi. Ammo bu mavzuni yanada chuqurroq o‘zlashtirish, amaliyotga tadbiq qilish uchun metodik yondashuv muhim. Nazariy bilimlar o‘quvchining esida mustahkam saqlanishi uchun ularni amaliy topshiriqlar bilan boyitish, turli faol o‘qitish usullaridan foydalanish zarur.

Dars jarayonida rolli o‘yinlar o‘zlashtirishni kuchaytiradi. “Supermarketda xarid qilish”, “Texnika do‘konidagi suhbat” kabi sahnalashtirishlar orqali “supermarket”, “laptop”, “printer” kabi so‘zlar tabiiy nutq jarayonida qo‘llaniladi. Bu metod o‘quvchilarni faollashtiradi va ularda nutqiy kompetensiyani shakllantiradi.

So‘z yasash mashqlarida o‘quvchilarga “kompyuterchi”, “printerchi”, “marketolog” kabi so‘zlarni hosil qilish topshiriladi. Bu ularni morfologik ongini mustahkamlaydi. Taqqoslash mashqlarida esa “telefon” – “qo‘ng‘iroq vositasi”, “trening” – “mashg‘ulot” kabi muqobillarni aniqlash orqali so‘z tanlash madaniyatini rivojlantirish mumkin.

Uyga topshiriq sifatida o‘quvchilarga atrofdagilar bilan suhbatda ishlatilayotgan o‘zlashma so‘zlarni aniqlash, ro‘yxatini tuzish va ularni o‘zbekcha muqobillari bilan taqqoslash vazifasi beriladi. Bunday kuzatuvlar ularning real hayotdagi til hodisalariga bo‘lgan e’tiborini oshiradi.

Kichik loyihalar tashkil qilish ham foydalidir. Har bir o'quvchi yoki guruh bir o'zlashma so'zning tarixi, uning dastlabki shakli va bugungi ishlatalishi haqida taqdimot tayyorlaydi. Bu ularni mustaqil izlanishga undaydi.

Multimedia vositalari orqali o'zlashma so'zlarning talaffuzi va yozilishi haqida vizual ma'lumotlar ko'rsatish, audio yoki video darsliklar bilan mustahkamlash ko'pkanal qabulni faollashtiradi. Uyga vazifa sifatida esa ota-onasi bilan suhbat qurib, kundalik hayotda ishlataladigan o'zlashma so'zlarni ro'yxatini tuzish, ularni tahlil qilish topshiriladi.

Muhokama darslarida "O'zlashma so'zlar kerakmi yoki o'zbekcha muqobil afzalmi?" degan savol atrofida munozara uyushtirish o'quvchilarning tanqidiy va analitik fikr yuritish salohiyatini oshiradi. Axborot texnologiyalaridan foydalanib, multimedia taqdimotlar, onlayn lug'atlar, audiomatnlar orqali o'zlashma so'zlarning talaffuzi, yozilishi, inglizcha va ruscha shakllari bilan tanishtirish mumkin. Shuningdek, darsdan tashqari mashg'ulotlarda – til haftaligi, viktorina, devoriy gazeta, o'yinlar orqali o'zlashma so'zlarga oid musobaqalar o'tkazilishi mumkin. Bu orqali o'quvchilarda mavzuga nisbatan chuqur va mustahkam qiziqish shakllanadi.

Sinfdan tashqari tadbirlar orqali mavzuni mustahkamlash ham foydalidir. Til haftaligi, "Yangi so'zlar viktorinasi", "Tilimizda zamonaviy atamalar" nomli devoriy gazetalar orqali o'zlashma so'zlar bo'yicha o'quvchilar bilimini ommalashtirish mumkin. Bu orqali mavzu faqat dars doirasida emas, balki o'quv muhitida keng yoritiladi.

Xulosa qilib aytganda, o'zlashma so'zlar til rivojining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Ularni mакtabda metodik asosda o'qitish o'quvchilarning nafaqat tilshunoslik bilimlarini boyitadi, balki zamonaviy fikrlash, nutq madaniyati va tanqidiy tahlil qobiliyatlarini rivojlantiradi. O'qituvchining vazifasi – tilimizdagи boylikni ko'rsatish, o'zlashma so'zlarni to'g'ri va ongli ishlatalishga o'rgatish, ona tilimizning imkoniyatlarini ochib berishdan iboratdir. Zero, ona tilini qadrlash va uni boyitish — har bir o'qituvchi va yosh avlodning muqaddas burchidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

Sodiqov A. v.b . Tilshunoslikka kirish. - Toshkent: O'qituvchi, 1981.

O'lmas Sharipova, Ibrohim Yo'ldoshev. Tilshunoslik asoslari. - Toshkent, 2006.

Gaziyeva Maftuna, Pirmatova Dilorom TERMINOLOGIK LUG'ATLAR HAMDA ULARNING AFZALLIKLARI XUSUSIDA. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI. 1-5-betlar.

Gaziyeva Maftuna, Pirmatova Dilorom O'ZBEK TERMINOLOGIYASINING LEKSIK – GENETIK XUSUSIYATLARI MASALASI

Виноградов В. В .Вступительное слово на Всесоюзном терминологическом совещании .// Вопросы терминологии . – Москва,1961. – С. 3 -10;

Кузькин Н. П. К вопросу о сущности термина //Вестник Л ГУ N 20 Серия истории, языка и литературы, Вып 4.- Л., 1962. – С.145.

Винокур Г. О. О некоторых явлениях словообразование в русской технической терминологии – Москва 1939. – С. 3- 54.Б. 3.

Dadaboyev H. O`zbek terminologiyasi. Toshkent, 2019, 18- bet